DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каяумов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	



ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li

Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot"
kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: lionslar9233@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy korxonalarda ichki auditning o'rni, ahamiyati, duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga bag'ishlanadi. Tadqiqotda ichki auditning korporativ boshqaruvdagi strategik funksiyalari, uning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar, shuningdek, malakali kadrlar yetishmasligi hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonidagi qiyinchiliklar ilmiy tahlil qilinadi. Ichki audit samaradorligini oshirish uchun mustaqillikni kuchaytirish, riskka asoslangan yondashuvni qo'llash, mutaxassislar salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Maqolada ichki auditning faqat nazorat vositasi emas, balki korxonaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shuvchi strategik hamkor sifatida qaralishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ichki audit, korporativ boshqaruv, nazorat tizimi, risklarni boshqarish, audit mustaqilligi, raqamli audit, ichki nazorat, strategik hamkorlik.

Abstract. This article examines the role and significance of internal audit in modern enterprises, highlighting existing challenges and practical solutions for improving its effectiveness. The research analyzes the strategic functions of internal audit within corporate governance, issues related to ensuring its independence and objectivity, the shortage of qualified professionals, and obstacles in adopting digital technologies. To enhance internal audit efficiency, recommendations are proposed on strengthening independence, implementing a risk-based approach, developing human capital, and integrating modern information technologies and artificial intelligence. The study emphasizes the need to consider internal audit not merely as a control mechanism, but as a strategic partner that contributes to the sustainable development of the enterprise.

Key words: internal audit, corporate governance, control system, risk management, audit independence, digital audit, internal control, strategic partnership.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение внутреннего аудита в современных предприятиях, а также возникающие проблемы и пути их решения. В рамках исследования анализируются стратегические функции внутреннего аудита в системе корпоративного управления, вопросы обеспечения его независимости и объективности, недостаток квалифицированных кадров и сложности внедрения цифровых технологий. Для повышения эффективности внутреннего аудита предлагаются практические меры, включающие усиление независимости, применение риск-ориентированного подхода, развитие кадрового потенциала, а также использование современных информационных технологий и искусственного интеллекта. В статье подчёркивается необходимость рассматривать внутренний аудит не только как инструмент контроля, но и как стратегического партнёра, создающего дополнительную ценность для предприятия.

Ключевые слова: внутренний аудит, корпоративное управление, система контроля, управление рисками, независимость аудита, цифровой аудит, внутренний контроль, стратегическое партнёрство.



KIRISH

Jahonda raqobatning keskinlashib borishi va biznes jarayonlarining murakkablashuvi sharoitida har bir korxona ma'muriyati samarali boshqaruvni ta'minlaydigan nazorat mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Mazkur mexanizmlar korxona nazorat tizimiga asoslanadi hamda unda ichki audit markaziy o'rinni egallaydi.

Ichki auditning asosiy maqsadi risklarni boshqarish, nazorat jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv qarorlarining ishonchligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadlarga korxona faoliyatining barcha jihatlarini mustaqil va xolis baholash orqali erishiladi. Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) ichki auditni "faoliyatni yaxshilash va qo'shimcha qiymat yaratishga qaratilgan mustaqil hamda xolis jarayon" deb ta'riflaydi [1].

Hozirgi vaqtda biznes yuritish qoidalarining yangilanishi, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va raqobatning kuchayishi korporativ boshqaruvni korxonalar uchun yanada muhim ahamiyatga ega qilmoqda. Mazkur sharoitda ichki audit va ichki nazorat samarali boshqaruvning ajralmas vositalari sifatida maydonga chiqmoqda.

So'nggi yillarda ko'plab korxonalar moliyaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida maxsus nazorat bo'linmalarini tashkil etish zarurligini chuqur anglab bormoqda. Ilgari O'zbekistondagi ayrim korxonalar rahbarlari ushbu bo'linmalarining biznes tuzilmasidagi rolini yetarli darajada tasavvur qilmasliklari mumkin edi. Ammo bugungi kunda tobora ko'proq korxonalar ichki audit va nazorat xizmatlarini joriy etishga intilmoqda.

Zamonaviy ichki audit va nazorat tizimlari turli vazifalarni hal eta oladigan keng ko'lamli imkoniyatlarga ega [2]. Ular korxona faoliyatining ishonchligi va samaradorligini baholash, moliyaviy hamda operatsion jarayonlarni tahlil qilish, ichki siyosat va tartib-qoidalariga rioya etilishini monitoring qilish kabi muhim funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat korxonalar duch keladigan xatarlarni boshqarishda asosiy o'rin tutadi. Ayniqsa, yangi mahsulotlarni bozorga chiqarish, axborot tizimlarini joriy etish va biznes jarayonlarini qayta tashkil etish davrida ichki auditning roli yanada ortadi.

Ichki audit va ichki nazorat — bu istiqbolga qaratilgan uzluksiz jarayon bo'lib, uning bosh maqsadi kompaniya rahbariyatiga belgilangan strategik maqsadlarga yuqori samaradorlik bilan erishishda ko'maklashishdan iborat [3].

Milliy va global miqyosdagi iqtisodiy o'zgaruvchanlik sharoitida ichki audit va nazoratni to'g'ri tashkil etish masalalari yanada dolzarblik kasb etmoqda. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida korxonalar muvaffaqiyati ko'p jihatdan ichki nazorat tizimining qay darajada samarali yo'lga qo'yilganiga bog'liq. Ichki audit ushbu tizimning bosh elementi sifatida jarayonlarning ishonchligini ta'minlaydi, moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va boshqarishda yordam beradi hamda strategik qarorlar qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

Tadqiqotlar xalqaro hamda milliy darajada ichki auditning rolini kuchaytirish va samaradorligini oshirishga bo'lgan e'tibor tobora ortayotganini ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, jarayonlarni raqamlashtirish va zamonaviy korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish ichki audit uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda to'liq natijaga erishishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ayrim muammolar ham mavjud.

Ular qatorida malakali kadrlar yetishmasligi, jarayonlarning yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi hamda ortiqcha byurokratik cheklovlarni ko'rsatish mumkin. Biroq so'nggi yillardagi tajriba ushbu sohada sezilarli taraqqiyot kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, raqamli audit, riskka asoslangan audit va uzluksiz monitoring tizimlarini joriy etish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda yangi istiqbollarni ochib bermoqda.

Shu bois, kompaniya nazorat tizimida ichki auditning o'rni, mavjud muammolar, innovatsion yondashuvlar va ularning boshqaruv samaradorligiga ta'siri masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish dolzarb hisoblanadi. Mazkur jarayonlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini kuchaytiradi, raqobatbardoshligini oshiradi, xatarlar yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi va natijada kompaniyaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ixtisoslashgan manbalar tahlili so'nggi yillarda ichki audit tushunchasining mazmuni sezilarli darajada o'zgarganini ko'rsatadi. Ilgarigi davrlarda ichki audit asosan nazorat va tekshiruv funksiyasi sifatida talqin etilgan bo'lsa, bugungi kunda u korxonaning strategik hamkori hamda qo'shimcha qiymat yaratuvchi tizimli mexanizmi sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) tomonidan berilgan zamonaviy ta'rifga ko'ra, ichki audit — bu tashkilotning maqsadlariga erishishga ko'maklashuvchi kafolatlar va maslahatlarni taqdim etadigan mustaqil hamda xolis xizmat bo'lib, u korxona faoliyatini yaxshilashga yo'naltirilgan tizimli va intizomli yondashuvni qo'llab-quvvatlash, boshqaruv hamda nazorat jarayonlarining samaradorligini baholash va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.



Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ichki auditning rivojlanish vektorini uch asosiy yo'nalish orqali belgilaydi: birinchidan, ichki auditning nazariy asoslari va uning konseptual poydevorini o'rganish; ikkinchidan, korporativ boshqaruv tizimida ichki audit hamda ichki nazoratning o'rnini ilmiy asoslash; uchinchidan, ichki auditorlar amaliyotida uchraydigan muammolar, cheklovlar va ularning yechimlarini tahlil qilish. Lawrence B. Sawyer, Robert R. Moeller, K. H. Spencer Pickett, Messier W. F., Glover S. M., Prawitt D. F., Paisley N., Springate G. C. va Angel R. Otero kabi yetakchi xorijiy tadqiqotchilar ichki auditning nazariy asoslarini batafsil o'rgangan bo'lib, ularning ilmiy ishlarida ichki auditning maqsadi, vazifalari, funksional yo'nalishlari, risklarni baholash, moliyaviy va operatsion faoliyatni optimallashtirish, strategik maqsadlarga erishishda auditorlik qo'llab-quvvatlashi va ichki nazoratning ishonchligini ta'minlash kabi muhim masalalar chuqur tahlil qilingan.

O'zbekistonlik olimlar — A. J. Tuychiyev, I. N. Qo'ziyev, R. M. Haydarov, M. M. Yoqubov, K. B. Axmedjanov, M. Sh. Mamatkulov, A. M. Babadjanov, A. K. Ahmedov, B. K. Hamdamov, Sh. I. Ilxomov, N. F. Karimov, O. A. Masharipov va M. S. Hojiyevlar ham ichki auditning milliy amaliyotdagi rivojlanish tendensiyalarini huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatlar orqali o'rgangan bo'lib, uni korxonalar boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida baholaydilar.

Bundan tashqari, COSO modeli va OECD korporativ boshqaruv standartlari ichki audit va ichki nazorat tizimining samaradorligini baholashda konseptual yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki audit korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash, korrupsiya va suiiste'mollarning oldini olish, jarayonlarni qayta moslashtirish hamda takomillashtirish, strategik boshqaruvni qo'llab-quvvatlash kabi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi.

Raqamli transformatsiya davrida KPMG, Deloitte va PwC ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tahlillar auditorlik jarayonlarini IT-audit, katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Ilmiy izlanishlar ichki auditning korxona nazorat tizimidagi ajralmas o'rni, boshqaruv samaradorligini oshirishdagi beqiyos ahamiyati hamda tashqi tahdidlarga nisbatan barqarorlikni kuchaytirishdagi rolini yaqqol ko'rsatadi.

Ichki audit to'g'ri tashkil etilganda korxonaning risklarni o'z vaqtida aniqlashi, bozordagi raqobatbardosh mavqeini mustahkamlashi va strategik qarorlar qabul qilish jarayonini sifatli axborot bilan ta'minlashi imkonini beradi. Uning samaradorligi auditorlik xizmatining mustaqilligi, rahbariyat tomonidan beriladigan qo'llab-quvvatlov va auditorlarning doimiy kasbiy rivojlanishiga bevosita bog'liqdir.

Shu bois, ichki auditni korxonaning strategik hamkori sifatida baholash to'g'ri yondashuv bo'lib, zamonaviy global tendensiyalar ushbu funksiyaning korxonani strategik boshqarishning muhim bo'g'iniga tobora barqaror tarzda aylanib borayotganini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida muallif tomonidan bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanilgan. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish va amaliy masalalarni tahlil qilish jarayonida ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash hamda monografik kuzatuv kabi umumiy ilmiy metodlardan foydalanildi. Shu bilan birga, maqolaning maqsadi va mazmuniga mos ravishda nazariy-metodologik baza mavzuga oid adabiyotlar tahlili, xalqaro va milliy standartlar hamda tegishli konseptual modellarni o'rganish asosida shakllantirildi.

Tadqiqot metodologiyasi ichki auditning nazariy asoslari, boshqaruv tizimidagi funksional o'rni, risklarni baholash mexanizmlari hamda ilg'or korporativ boshqaruv tajribalarini qamrab olgan holda shakllantirilgan bo'lib, bu yondashuv tahlilning ilmiy ishonchligi va amaliy samaradorligini ta'minladi. Metodlarning o'zaro uyg'un qo'llanilishi ichki audit jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni chuqur anglash, ularning ildiz omillarini aniqlash va ularga nisbatan samarali yechimlarni ishlab chiqishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'sib borayotgan risklar va manfaatdor tomonlarning shaffoflikka bo'lgan yuksak talablari bilan ajralib turadigan zamonaviy biznes sharoitida ichki audit va nazorat tizimlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ichki audit nafaqat jarayonlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi mexanizm, balki ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, jarayonlarni tahlil qilish va takomillashtirishga ko'maklashuvchi eng muhim boshqaruv vositasidir. U korxona faoliyatining mustaqilligi va xolisligini ta'minlab, samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Bozorlarning jadal o'zgarishi, regulyatorlar talablarining kuchayishi va biznes jarayonlarining murakkablashuvi sharoitida ichki nazorat tizimining samaradorligini mustaqil baholash zarurati ortib bormoqda, ichki audit esa bunday baholashni amalga oshirishning asosiy vositasiga aylanmoqda [13–14].

Hozirgi sharoitda ichki auditning korxona nazorat tizimidagi o'rnini chuqur o'rganish dolzarb masalaga aylangan, chunki ayrim korxonalarda ichki audit hali ham strategik hamkor emas, balki faqat avvalgi davr



xatolarini aniqlashga qaratilgan rasmiy tekshiruv mexanizmi sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu holat ichki auditning real amaliyoti va uning keng ko'lamli potensial imkoniyatlari o'rtasida ma'lum tafovut vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur tafovutni bartaraf etish ichki auditning haqiqiy qadriini oshirish, uni raqobatbardoshlikni mustahkamlovchi tizimli boshqaruv vositasiga aylantirishda muhim ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqot doirasida ichki audit samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar tahlil qilindi va ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yo'nalishlar ishlab chiqildi. Avvalo, ichki auditning obyektivligi va xolisligi masalasi muhim o'rin egallaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ba'zi tashkilotlarda ichki auditning mustaqilligi yetarli darajada ta'minlanmagani kuzatiladi. Xalqaro tajriba ko'rsatishicha, ichki audit xizmatining to'g'ridan-to'g'ri bosh direktor yoki moliya direktoriga hisobot berishi tekshiruv natijalarining obyektivligiga salbiy ta'sir qilishi hamda axborotga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Mazkur muammoni yumshatish uchun kuzatuv kengashi huzurida auditorlik qo'mitasini tashkil etish va ichki auditning barcha zarur ma'lumotlardan foydalanish huquqini korxona ustav hujjatlarida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ayrim tashkilotlarda ichki auditning asosiy vazifalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi ham aniqlangan. Amaliyotda auditorlarga buxgalteriya hisobini yuritish yoki birlamchi hujjatlarni tayyorlash kabi ularning funksional vazifalariga kirmaydigan ishlar yuklatilishi kuzatiladi. Bu holat ichki auditning mustaqilligiga putur yetkazib, ish jarayonida chalkashliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun ichki auditning maqsadlari, vakolatlari va javobgarligini IIAning IPPF standarti asosida tartibga soluvchi ichki nizomlarni ishlab chiqish hamda ichki audit, sifat nazorati va boshqa bo'limlar o'rtasidagi majburiyatlarni aniq belgilash zarur.

Yana bir dolzarb masala — ichki auditning haddan ziyod avvalgi davr xatolarini aniqlashga yo'naltirilgan holda talqin qilinishi. Holbuki, zamonaviy yondashuv auditorlik faoliyatining markazida xatolarni aniqlash emas, balki kelajakdagi xatolarni baholash, risklarni boshqarish va strategik maqsadlarga erishishni qo'llab-quvvatlash vazifasini ko'radi. Shundan kelib chiqib, auditorlik faoliyatini rejalashtirish jarayonini korxonaning strategik maqsadlari va asosiy risklari bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, jarayonlarni yaxshilashga qaratilgan maslahat auditi metodologiyasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ichki auditning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri — malakali mutaxassislar yetishmasligi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida auditorlar nafaqat moliya va buxgalteriya sohasida, balki axborot texnologiyalari, risklarni boshqarish va tarmoq xususiyatlarini tushunish bo'yicha ham chuqur bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Buni ta'minlash uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini (CIA, CISA va boshqalar) yo'lga qo'yish, IT va operatsion jarayonlar bo'yicha tajribaga ega mutaxassislarni ichki audit jamoalariga jalb etish muhimdir.

Jarayonlarni avtomatlashtirish darajasining pastligi ham ichki audit samaradorligini cheklovchi omillardan biridir. Ko'pgina korxonalarda ma'lumotlarni tahlil qilishning zamonaviy texnologiyalari, sun'iy intellekt imkoniyatlari va maxsus audit dasturlaridan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun ACL, IDEA, Tableau kabi axborot tahlili vositalaridan foydalanish, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarini joriy etish, asosiy ko'rsatkichlarning uzluksiz monitoringini ta'minlash hamda real vaqt rejimida anomaliyalarni aniqlovchi tizimlarni tatbiq etish tavsiya etiladi.

O'tkazilgan tahlillar ichki auditning an'anaviy yondashuvlarga nisbatan sezilarli darajada o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Ichki auditning avtonom ishlashi har doim ham to'liq ta'minlanmasligi, ba'zan barcha zarur ma'lumotlarga ega bo'lmisligi mumkin bo'lsa-da, bu yo'nalish izchil takomillashtirishni talab qiladigan istiqbolli tadqiqot sohasidir. Zamonaviy texnologiyalar va ilg'or usullar ichki auditni yanada rivojlantirish, uni risklarni prognoz qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi qimmatli vositaga aylantirish imkonini beradi. Buning uchun auditorlar muntazam ravishda bilim va ko'nikmalarini boyitib borishlari, kasbiy salohiyatni oshirishga intilishlari zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ichki audit bilan bog'liq masalalar tizimli xarakterga ega bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ichki auditning yetarli avtonomiyaga ega emasligi risklarni boshqarishga yo'naltirilgan zamonaviy ish modeliga to'laqonli o'tishni qiyinlashtiradi. Mutaxassislarning malaka darajasi yetarli bo'lmaganda esa auditorlik faoliyati kundalik operatsion vazifalarga haddan tashqari yo'naltirilib, uning strategik vazifalari cheklanishi kuzatiladi. Mazkur omillar ichki auditning potensial imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga sabab bo'ladi.

Shunga qaramay, taklif etilayotgan yechimlar majmuasi ichki auditni faqat nazorat qiluvchi organ emas, balki biznes jarayonlariga real qiymat qo'sha oladigan strategik hamkor sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Xavf-xatarga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish hamda ma'lumotlarni tahlil qilishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish auditorlik jarayonini o'tmishdagi xatolarni qayd etishdan kelajakdagi tahdidlar, imkoniyatlar va istiqbollarni baholash sari yo'naltiradi. Bu esa korxona va tashkilotlarning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.



Ichki auditning mustaqilligini ta'minlash, xodimlarning uzluksiz o'qishi va kasbiy rivoji uchun zarur shart-sharoitlar yaratish korxona va tashkilotlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim omillardir. Kelajakda ichki audit transformatsiyasi va uning nazorat tizimidagi o'rnini mustahkamlash uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchidan, ichki auditning mustaqilligi ta'minlanishi, ya'ni auditorlar yuqori rahbariyat tarkibiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qila oladigan, xolis faoliyat yuritadigan tashkilot maqomiga ega bo'lishlari zarur; ikkinchidan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va data-analitika vositalaridan foydalanish ichki audit samaradorligini sezilarli oshiradi hamda uning dolzarbligini ta'minlaydi; uchinchidan, ichki auditning boshqa funksional bo'limlar bilan yaqin hamkorlikda ishlashi, ularni qo'llab-quvvatlashi va biznes jarayonlarini optimallashtirishga hissa qo'shishi talab etiladi. Shundagina ichki audit korxonaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik mexanizmga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ichki audit butun tashkilot faoliyatini integratsiyalovchi, baholovchi va takomillashtiruvchi nazorat tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Ichki audit o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun u doimiy rivojlanib borishi, an'anaviy cheklovlarni yengib o'tishi hamda ilg'or yondashuvlarni tatbiq etishi talab etiladi. Ko'rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda ichki audit rahbariyat va direktorlar kengashi uchun zamonaviy biznes muammolariga samarali javob beruvchi, barqaror strategik qarorlar qabul qilishga imkon yaratadigan muhim monitoring tizimiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erkinjon o'g'li, M. U. B., & Muxtorovich, Q. M. (2025). Improvement of the internal control system of economic entities. Web of Teachers: Inderscience Research, 3(4), 381–387.
2. Ракутько, С. Ю., Селезнева, Е. Ю., Житлухина, О. Г., Белик, Е. В., Бережнова, Е. И., Ломоносова, Е. В., & Белик, Н. В. (2021). Внутренний аудит и контроль бизнес-процессов.
3. Moldovan, M., & Balan, I. (2024). Aspects regarding the efficiency of the management system of the entity through the internal audit. In Universitas Europaea: spre o societate a cunoașterii prin europenizare și globalizare (Vol. 1, pp. 236–240).
4. Sawyer, L. B., Dittenhofer, M. A., & Scheiner, J. H. (1996). Sawyer's internal auditing: The practice of modern internal auditing.
5. Moeller, R. R. (2005). Brink's modern internal auditing. NJ: John Wiley & Sons Incorporated.
6. Pickett, K. S. (2010). The internal auditing handbook. John Wiley & Sons, Inc.
7. Messier, W. F., Glover, S. M., Prawitt, D. F., Paisley, N., & Springate, G. C. (2008). Auditing & assurance services: A systematic approach. Boston, MA: McGraw-Hill Irwin.
8. Otero, A. R. (2018). Information technology control and audit. Auerbach Publications.
9. Ichki audit. Darslik. A. J. Tuychiyev, I. N. Qo'ziyev, R. M. Haydarov, M. M. Yoqubov. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 368 b.
10. K. B. Axmedjanov va boshq. Amaliy ichki audit. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 202 b.
11. Ichki audit. Darslik / M. Sh. Mamatkulov, A. M. Babadjanov, A. K. Ahmedov. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2021. – 208 b.
12. Amaliy audit. Darslik. B. K. Hamdamov, Sh. I. Ilxomov, N. F. Karimov, O. A. Masharipov, M. S. Hojiyev. – Toshkent: OOO "Lesson Press" nashriyoti, 2021. – 300 b.
13. Maxsitaliyevich, K. U. (2024). Korxonada ichki audit xizmatini yaratish va undan oqilona foydalanish masalalari. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(08), 265–271.
14. Попова, Ю. А. (2020). Система внутрифирменных стандартов как актуальный инструмент реализации внутреннего аудита организации. Дневник науки, (12), 49–49.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
